



YIRIK BOZORLARDA JINOYATLARNI KELTIRIB CHIQRUVCHI VA JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI OMILLAR: TAVSIFI, TAHLILI VA YECHIMI

Isamidin Ismailov

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori, professor
isomiddinismoilov@gmail.com

Muzaffar Ziyodullayevich Ziyodullayev

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori, professor
muzziyo@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15045997>

ARTICLE INFO

Received: 27th February 2025

Accepted: 28th February 2025

Published: 18th March 2025

KEYWORDS

bozor, yirik bozor, yirik bozorlar va savdo komplekslarida jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarning asosiy sabablari, jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlar, bozorlarda jinoyatlarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish, Milliy gvardiya bo'linmalari, ichki ishlar organlari, munitsipal bo'linmalar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yirik bozorlarga xos kriminogen xususiyatlar, so'ngi yillarda bozorlar hududida sodir etilgan jinoyatlarning dinamikasi va ko'rsatkichlari, ushbu jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va shart-sharoitlar o'rganilgan hamda mazkur sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etishga doir, shuningdek yirik bozorlar va savdo komplekslarida jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi muayyan muammolarning yechimiga doir takliflar ilgari surilgan.

Bozorlar davlatchilik tarixi singari qadimiy tarixga ega bo'lib, O'rta Osiyo hududida savdo-sotiq qadimdan rivojlangan Buxoro, Samarqand, Poykend, Urganch, Xiva, Marv, Numijkat, Isfijob, Ushturkat, Chag'oniyon kabi shaharlarida "tim", "toqi", "chorsu" deb nomlangan gavjum bozorlar bo'lgan. Gumbazli timlar eng gavjum chorraha chorsularda joylashgani uchun ham shaharning me'moriy qiyofasini belgilagan. Chorrahalarda qurilgan tim, chorsu namunalarini Samarqand va Shahrisabz, Xiva (Olloqulixon timi), Buxoro (Abdullaxon timi)dagi timlar misolida ko'rish mumkin[9].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, barcha davrlarda ham bozorlarda tartibni saqlash, ularda jinoyatlar sodir etilishining oldini olish – muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Bu vazifani bajarish uchun maxsus kishilar jalb etilgan. Xususan, Amir Temur saltanati davlatida joriy etilgan *muhtasib* musulmonlar tomonidan shariat qonun-qoidalarining bajarilishini nazorat qilish bilan birga, bozor-o'charda tosh-tarozi va narx-navoni nazorat qilib turgan[4]. Shuningdek, karvon yo'llari va bozorlarda xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash maxsus (harbiy) tuzilmalar tomonidan amalga oshirilgan[8].

Markaziy Osiyoda xonliklar davrida aholi turar joylarida, xususan bozorlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, shariat qoidalari buzilishining oldini olish vazifasi mirshablarga yuklatilgan. Ba'zi manbalarda mirshablar yuzboshi va yasovulboshiga bo'ysunishgani[5], ayrim adabiyotlarda esa mingboshi va katta oqsoqollar ixtiyorida xizmat qilganliklari qayd etiladi[10].

Mirshablar kechki payt, ya'ni bozorlar, do'konlar, ustaxonalar va shahar darvozalari yopilgandan keyin ham o'z vazifasini bajargani sababli ularni "tun hukmdorlari" (arab. *mir* – hukmdor, *shab* – tun) deb atalgan[11]. Ko'p holatlarda mirshablik xizmatiga jamoat tartibini saqlash jarayonida yordamchi kuch sifatida navkar (askar)lar jalb etilgan[7].

Chor istilosidan keyin O'zbekiston hududida mirshablar tungi navbatchilik, tartib-intizomni ta'minlash bilan birga, politsiya vazifasini ham bajarishgan. Ushbu davrda mirshabxonalar boshlig'i «qo'rboshi» deb atalgan[10]. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olingan qismida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, shaharlarda polimeyster lavozimi joriy etilib, ularning huquqlari qo'rboshi (tumanboshi)lar bilan tenglashtirilgan[6].

Darhaqiqat, so'nggi yillarda mamlakatimizda zamonaviy bozor va savdo komplekslarini qurish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini va iste'mol tovarlari narxlarining barqarorligini ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda bozorlar va katta savdo komplekslarining ko'payib, ish ko'lamining ortib borishi, tashrif buyuruvchilar sonining oshib borishi ularning hududida jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bilan bog'liq tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmoni bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o'tkazishda hamda istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilab berilganligi bu boradagi ishlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Farmonga muvofiq, bugungi kunda bozorlar hududida jamoat tartibini saqlash, ichki ishlar organlari bilan birgalikda jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda[2].

Bozor – savdo-sotiq qilinadigan muayyan joy, maydon bo'lib[9], mamlakatimizda asosiy sotiladigan mahsulotning turiga ko'ra bozorlarning: dehqon (oziq-ovqat) bozori, chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori, ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori, ulgurji bozor, qurilish mollari bozori, dam olish kuni yarmarkasi kabi asosiy turlari ajratiladi.

Yirik bozorlar – 300 va undan ortiq turg'un savdo shoxobchalari va savdo o'rinlari mavjud bo'lgan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan joylarda doimiy yoki vaqtincha asosda faoliyat ko'rsatadigan mulkiy kompleks va unga tutash hududlar hisoblanib[3], ular o'ziga xos bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Xususan: yirik bozorlarga boshqa hududlardan ham ko'p miqdordagi odamlarning kelib-ketishi hamda ular tarkibining tez-tez o'zgarishi, shuningdek tranzit o'tuvchilar sonining ko'pligi; insonlarning aksariyat holatlarda xarid qilish niyatida borishi sababli ularning yonida doimo pul yoki xarid qilingan narsalarning mavjudligi; tasdiqlangan sxemadan tashqari joylarda savdo-sotiq qilinishi va natijada yo'laklarning torayib, to'sib qo'yilishi; yurish yo'laklarida ko'p sonli odamlarning harakatlanishi hamda bu jarayonda tiqilinch holatlarning yuzaga kelishi; ayrim yirik bozorlarning avtoturargohlarida transport vositalarining qarovsiz va tartibsiz tashlab ketilishi; insonlardagi shopping (shopping), ya'ni xarid qilish ishtiyoqi uning mulki, puli va boshqa qimmatbaho buyumlariga nisbatan e'tiborning susayishi, ba'zi hollarda esa narsa va buyumlarini qarovsiz yoki unutib qoldirishiga olib kelishi; dam olish va bayram kunlari bozor bilan tutash yo'llarda transport vositalari harakatining ko'payishi hamda ularning yetarlicha tartibga solinmasligi kabi xususiyatlar va omillar bozorlarda muayyan darajada o'g'rilik, tovlamachilik, talonchilik, firibgarlik kabi jinoyatlar, o'lim yoki tan

jarohati bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari sodir etilishiga sabab bo'ladi yoki sharoit yaratadi.

Statistik ma'lumotlar tahlil shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda respublikamizdagi mavjud bozorlarda 585 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, ularni turi bo'yicha tahlil qilganda 75,9 %ini o'g'rilik, 11,3 %ini bezorilik, 4,3 %ini qasddan badanga yengil shikast yetkazish, 3,8 %ini qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish, 1,7 %dan tovlamachilik va talonchilik, 0,7 %ini qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, 0,3 %ini qasddan odam o'ldirish hamda 0,2 %dan o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish va bosqinchilik jinoyatlari tashkil etadi. 2023-yilda esa respublikamiz bozorlarida 416 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, ularning 80,2 %ini o'g'rilik, 10,8 %ini bezorilik, 2,6 %ini qasddan badanga yengil shikast yetkazish, 1,9 %dan qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish va qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, 1,2 %ini talonchilik, 0,5 %ini firibgarlik va 0,2 %dan qasddan odam o'ldirish, nomusga tegish va ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish jinoyatlari tashkil etadi.

2024-yilda respublikamiz bozorlarida 331 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, ularning 78 %ini o'g'rilik, 10,3 %ini bezorilik, 6,3 %ini qasddan badanga yengil shikast yetkazish, 2,7 %ini qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish, 1,2 %ini talonchilik, 0,9 %ini qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, 0,3 %dan qasddan odam o'ldirish va ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish jinoyatlari tashkil etadi.

Tahlillar so'nggi yillarda respublikamiz bozorlarida qayd etilgan jinoyatlar yildan yilga kamayib, 2024-yilda 2022-yilga nisbatan *43,4 foizga pasayganini ko'rsatadi*. Tahlillarda bozorlardagi jinoyatlarning asosiy qismi, ya'ni *har to'rttadan uchtasini o'g'rilik*, har o'ntadan bittasini bezorilik hamda jami jinoyatlarning 8,5 foizini tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar tashkil etishi ko'zga tashlanadi.

Respublika bozorlarida 2022-2024-yillar davomida qayd etilgan jinoyatlarni ma'muriy-hududiy birliklar taqsimotida tahlil qilinganda, ularning yarmidan ko'pi (52,7 %) Toshkent shahri bozorlariga to'g'ri keladi va buni poytaxtda yirik bozorlarning ko'pligi bilan izohlash mumkin. Bozorlar hududida sodir etilgan jinoyatlarning 22,1 % Farg'ona viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Ko'rinib turganidek, respublikamiz bozorlarida *qayd etilgan har to'rtta jinoyatning uchtasi Toshkent shahri va Farg'ona viloyati bozorlari hissasiga to'g'ri kelmoqda*.

Respublikamiz bozorlarida 2022-2024-yillarda qayd etilgan jinoyatlar bo'yicha qolgan hududlarning hissasi quyidagicha: Namangan viloyati – 5,6 %, Qoraqalpog'iston Respublikasi – 4,6 %, Andijon viloyati – 3,9 %, Buxoro viloyati – 3,5 %, Qashqadaryo viloyati – 2,3 %, Jizzax viloyati – 1,7 %, Xorazm viloyati – 1,2 %, Surxondaryo viloyati – 1,0 %, Sirdaryo viloyati – 0,8 %, Navoiy viloyati – 0,5 %, Samarqand viloyati – 0,4 % va Toshkent viloyati – 0,1 %ni tashkil etadi[12].

Jinoyatchilikning sabab va sharoitlari bir qancha kriminologik determinantlar yig'indisidan iborat bo'lib ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, g'oyaviy, ijtimoiy-ruhiy, tashkiliy-boshqaruv, siyosiy sohalaridagi kamchiliklar o'zining oqibati (determinanti) sifatida jinoyatchilik hodisasini mavjud bo'lishini va o'sib borishini taqozo etadi.

Bozorlarda sodir etilayotgan iqtisodiy (o'g'rilik, tovlamachilik, talonchilik, bosqinchilik, firibgarlik) jinoyatlarning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: ayrim toifa shaxslarda mehnat qilmasdan turib yengil boylik orttirish xohishi, past niyat va g'araz motivining mavjudligi; ayrim shaxslarning ishsizligi oqibatida o'zi va oilasi ehtiyojlarini jinoiy yo'l bilan qondirishga harakat qilishi; bozor ma'muriyati tomonidan ishning to'g'ri tashkil etilmaganligi, xavfsizlik choralarining ko'rilmaganligi, ayrim hollarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash uchun Milliy gvardiya bo'linmalari bilan shartnomalarning tuzilmaganligi; ayrim sotuvchilarning tovar va mahsulotlarni do'konning ichida sotishga qanoat qilmasdan, uning tashqi qismiga ham yoyib qo'yishi natijasida ularni nazorat qila olmasligi hamda o'g'riliklar sodir etilishiga sharoit yaratib berishi; xaridorlarning aksariyati biror narsani xarid qilish jarayonida asosiy e'tiborni xarid qilmoqchi bo'lgan narsa yoki

buyumga qaratishi natijasida o'z mulki, puli va boshqa qimmatbaho buyumlariga nisbatan e'tiborning susayishi, ba'zi hollarda esa narsa va buyumlarini qarovsiz yoki unutib qoldirishi; bozorlarda sodir etiladigan o'g'rilik jinoyatlarining o'ziga xos latentlik darajasi mavjudligi, ya'ni ayrim o'g'rilik jinoyat qurboni bo'lgan shaxslarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmasligi (bunga ularning ortiqcha ovoragarchilikdan qochishi, vaqtining kamligi, ishonchsizligi yoki boshqalar sabab bo'lishi mumkin) oqibatida bu turdagi jinoyatlarning ildiz otishiga olib kelishi; bozorlarga boshqa hududlardan kelib-ketuvchi odamlarning ko'pligi hamda ular tarkibining tez-tez o'zgarishi, shuningdek tranzit o'tuvchilar hajmining yuqoriligi sababli o'g'rilik jinoyatlarini sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ushlab imkoniyatining pastligi; mulkdorlar tomonidan shartnoma yoki o'zaro kelishuv asosida sotuvchilarga ishonib topshirilgan mulkni, ya'ni o'ziga tegishli savdo do'konlaridagi tovar-mahsulotlarni, shuningdek ishchilarning faoliyatini uzoq muddat davomida nazorat qilmasdan o'z holiga tashlab qo'yilishi; bozorlarda xizmat olib boruvchi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalari xodimlari xizmatini tashkil etishdagi kamchiliklar, xususan bozorga tashrif buyurgan odamlar soni, oqimi, kechayotgan jarayonlar va boshqalarni inobatga olgan holda kuch va vositalardan samarali foydalanish, ularni qayta joylashtirish yoki manevr qilish choralari ko'rilmaligi va h.k.

Bozorlarda sodir etiladigan bezorilik va tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarning sabablari sifatida qo'shimcha ravishda quyidagilarni keltirish mumkin: ayrim sotuvchi va xaridorlarda huquqiy madaniyat va savdo qilish madaniyati darajasining pastligi, muomaladagi qo'pollik; sotuvchilarning xaridor talashishi va oqibatda masalaning yechimini o'zaro janjal, urishish orqali topishga harakat qilishi; savdo va xarid qilish jarayonida sotuvchi va xaridor o'rtasida tovarning narxi yoki sifati yoxud boshqa masalada o'zaro kelishmovchilikning yuzaga kelishi; dehqon bozori va yoyma bozorlarda sotuvchilarning joy talashishi hamda buning o'zaro janjalga aylanishi; bozorlarda arava xizmatini ko'rsatuvchi ayrim shaxslarning ehtiyotsizligi, qo'polligi oqibatida sotuvchi yoki xaridorlarga ziyon yetkazishi orqasidan janjal kelib chiqishi va boshq.

Bozorlarda jinoyatlar sodir etilishiga imkon beradigan shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin: bozorlar va savdo rastalarida kuzatuv kameralari o'rnatilmaganligi, o'rnatilganlari esa kuzatuv va situatsion markazlar bilan integratsiya qilinmaganligi; do'konlar va omborlarning yetarlicha himoyalanganligi, qo'riqlov va kuzatuvga olinmaganligi; bozorning ish vaqti tugaganidan keyin to'liq nazorat va qo'riqlovga olinmasligi; radiouzel tizimi orqali shaxslarni jinoyat qurboni bo'lmasliklari uchun ehtiyotkorlikka chaqirishning yo'lga qo'yilmaganligi; sotuvchilarning do'kon yoki rastalardagi mahsulotlari miqdori va hajmi kattaligi sababli ularni nazorat qila olmasligi; tovar va mahsulotlarni do'kondan chiqarib, belgilanmagan joyda yoyib sotilishi natijasida ularni nazorat qila olmasdan o'g'rilik sodir etilishiga sharoit yaratib berilishi; bozorlarga "Hudud kamera nazoratida!" va "Obekt qo'riqlovda!" kabi ogohlikka chaqiruvchi stikerlar o'rnatilmaganligi; bozorlarning avtoturargohlarida transport vositalarining qarovsiz tashlab ketilishi, bozor ma'muriyati tomonidan xavfsizlikni ta'minlash uchun personalning ajratilmasligi oqibatida ulardan o'g'riliklar sodir etilishi imkoniyati yuzaga kelishi; dam olish va bayram kunlari bozor bilan tutash yo'llarda transport vositalari sonining ortib ketishi, ularning harakati yetarlicha tartibga solinmasligi hamda qo'shimcha kuchlarning ajratilmasligi va h.k.

Bozorlarda jinoyatlar sodir etilishining sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bozor ma'muriyati, Milliy gvardiya bo'linmalari, ichki ishlar organlari xodimlari va boshqa tegishli mutasaddi shaxslar tomonidan birgalikda o'rganish, tahlil qilish orqali ularni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish choralari ko'rish bozorlarda sodir etiladigan jinoyatlarning barvaqt oldini olishdagi eng muhim va samarali chora-tadbirlardan biri hisoblanadi.

Bozorlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olishda ularning barvaqt profilaktikasini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. *Bozorlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning barvaqt profilaktikasi* bu turdagi jinoyatlarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini o'z vaqtida

bartaraf etish, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish, ularda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik tuyg'usini singdirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bozorlarda jinoyatlarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash quyidagi yo'llar (usullar) bilan amalga oshirilishi mumkin: bevosita bozordagi har bir do'kon, rastada faoliyat yuritayotgan sotuvchilar, tadbirkorlar bilan tanishish, ularning muammolarini o'rganish; jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni o'rganish, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini bevosita qabul qilish; bozor hududida ilgari sodir bo'lgan huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish; ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda berilgan ma'lumotlarni o'rganish; huquqni muhofaza qiluvchi organlar, vakolatli boshqa organlar va muassasalardan kelib tushgan taqdimnoma, topshiriq va ma'lumotnomalarni o'rganish; turli manbalar orqali kelib tushgan xabar va ma'lumotlarni joyiga chiqib o'rganish va boshq.

Huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlari aniqlangandan so'ng ularni o'z vaqtida bartaraf etish choralari ko'riladi. Bu jarayonda Milliy gvardiya bo'linmalari va ichki ishlar organlari xodimlarining bozor ma'muriyati, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bozorlarda jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini tashkil etishda quyidagi tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim: chora-tadbirlar: bozor ma'muriyati tomonidan bozor hududi va atrofida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Milliy gvardiya bo'linmalari bilan o'rnatilgan tartibda shartnomalarni tuzish; bozorlarning yo'laklari, savdo rastalari va boshqa muhim ahamiyatga ega bo'lgan joylariga kuzatuv kameralari o'rnatish hamda ularni situatsion markazlar bilan integratsiya qilish; zaruratga ko'ra do'konlar va omborlarning eshiklari, derajalariga temir panjaralar o'rnatish, ularni qo'riqlovga olish choralari ko'rish; bozor hududini obodonlashtirish, obektlarni joylashtirish va jihozlashga qo'yiladigan umumiy talablarga muvofiq, bozorning yaxshi yoritilishi, yondosh hududdan to'siq bilan ajratilishi hamda ish vaqti tugagandan keyin yopiladigan kirish va chiqish joylari bo'lishini ta'minlash; obektlarni joylashtirishning tasdiqlangan sxemasidan tashqari qo'shimcha savdo o'rinlarini tashkil etilishiga, sotuvchilarning tovar va mahsulotlarni do'konning belgilangan joyidan tashqarida yoyib sotishiga, yo'laklarni to'sib yoki toraytirib qo'yishiga yo'l qo'ymaslik; ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalari xodimlari xizmatini tashkil etishda ularni belgilangan postlar va patrullik yo'nalishlari bo'yicha to'g'ri joylashtirish, tashrif buyuruvchilar soni, oqimi, kechayotgan jarayonlar va boshqa-larni inobatga olgan holda zaruratdan kelib chiqib kuch va vosita-larni manevr qilish choralari ko'rish; zarurat va imkoniyatga ko'ra bozorlarning avtoturargohlarida transport vositalarining tartibli joylashtirilishi hamda ularning xavfsizligini ta'minlash uchun alohida personal ajratish; dam olish va bayram kunlari bozorlarga tutash yo'llarda transport vositalari sonining ortishini inobatga olib, xizmatga qo'shimcha yo'l-patrul xizmati xodimlari ajratilishini ta'minlash. Ko'rsatilgan tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar bir vaqtning o'zida jinoyatlar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga ham xizmat qiladi.

Bozorlarda bevosita jinoyatlar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishga doir chora-tadbirlar: bozor hududida maqsadsiz yurgan, xatti-harakatlari shubha uyg'otuvchi, jinoyat, ayniqsa o'g'rilik sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslarni aniqlash hamda ular bilan profilaktik suhbat o'tkazish va boshqa choralarni ko'rish; ishsiz bo'lgan, buning oqibatida o'zi va oilasi ehtiyojlarini qondirishga qurbi yetmayotgan hamda jinoyatga qo'l urishi mumkin bo'lgan shaxslarni band qilish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga ko'maklashish; alkogolli mahsulotlarni sotishga yo'l qo'ymaslik (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno); sodir etilgan o'g'riliklarning latentlik darajasini kamaytirish, har bir jinoyatni

hisobga olish va uni sodir etgan shaxsga nisbatan jazo muqar-rarligini ta'minlash, bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatidan samarali foydalanish.

Aholining huquqiy madaniyatini oshirish, ma'naviy tarbiyalash, qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik tuyg'usini singdirish bo'yicha chora-tadbirlar: sotuvchi va tadbirkorlar, bozorda xizmat (servis) ko'rsatuv-chi boshqa shaxslar (aravakash, etikdo'z, kalit yasovchi va boshq.) bilan ularning huquqiy ongi, savdo qilish va muomala madaniyatini oshirish bo'yicha huquqiy targ'ibot va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazib borish; bozorlar va unga tutash hududlardagi reklama uchun mo'ljallangan LED ekranlar va bannerlar orqali, shuningdek tarqatma materiallar va flayerlarni tarqatish orqali aholi orasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish; radiouzel tizimi orqali doimiy ravishda shaxslarni shaxsiy mulklariga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo'lish hamda jinoyat qurboniga aylanib qolmasliklari uchun ogohlantirib borishni yo'lga qo'yish; bozorlar va unga tutash hududlarda joylashgan masjidlarda imomlar tomonidan qilinadigan ma'ruzalarda mehnat qilmasdan turib yengil boylik orttirish, past niyat va g'arazgo'ylik, o'zgalarning mulkiga ko'z olaytirish, boshqa insonlar bilan janjallashish illatlaridan tiyilish lozimligi hamda ularning oqibatlarini hadislar va jonli misollar yordamida tushintirib borish; jinoyatdan jabrlanishi mumkin bo'lgan shaxslar bilan bevosita suhbatlashish orqali ularga sodir etayotgan yoki yo'l qo'yayotgan xatti-harakati jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib berishi mumkinligi, o'zi esa jinoyatning qurboniga aylanib qolishi mumkinligini tushintirib borish.

Shuningdek, har bir oilada, maktabgacha ta'lim muassasasi va ta'lim muassasalarida voyaga yetmaganlar va yoshlarni ularning bolaligidan boshlab ma'naviy tarbiyalash, ularda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik tuyg'usini singdirish, shu jumladan bozorlar va katta savdo komplekslarida o'zini tutish, savdo qilish madaniyatini shakllantirish, tozalik va ozodalikka rioya etish, insonlar bilan muloqotda xushmuomalali bo'lishga o'rgatib borish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bozorlarda sodir etiladigan jinoyat va boshqa xuquqqa xilov-xatti harakatlarning oldini olishga samarali xizmat qiladi.

Umuman olganda bozorlarda jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirishning chora-tadbirlari, usullari va shakllari doirasi keng bo'lib, ularning samaradorligi mazkur chora-tadbirlar, usullar va shakllarni bir-biridan farqlab, tizimli, mantiqiy izchillikda va har biriga alohida yondashgan holda qo'llashga bog'liq.

Shu bilan birga, olib borilgan o'rganish va tadqiqotlar bozor va savdo komplekslarida jamoat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, tajovuz qiluvchi, huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'lishi yoki shart-sharoit yaratishi mumkin bo'lgan ayrim muammo va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil

28-avgustdagi 253-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari" va "O'zbekiston Respublikasida savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish qoidalari"[1] ma'nan eskirgan hamda ularda huquqiy bo'shliqlar mavjud:

- "bozor" va "savdo markazi" tushunchalarining huquqiy ta'riflari, ularga qo'yiladigan talablar berilmagan. Masalan, Toshkent shahridagi "Ippodrom" bozori ta'xis hujjatlarida "Chilonzor" buyum savdo kompleksi" AJ deb nomlangan bo'lsa, "Abu Saxiy" bozori "Tashkent Trade center" ("Toshkent savdo markazi") MCHJ deb nomlangan. Biroq, "Toshkent savdo markazi"ning tarkibida har biri alohida savdo markazi hisoblangan 5 ta blok mavjud. Shu bilan birga bu kabi yirik bozorlar (savdo majmualari) o'z faoliyatini "O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari" yoki "O'zbekiston Respublikasida savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish qoidalari" asosida olib borishi ham aniq belgilab berilmagan;

- bozordagi savdo o'rinlarining soni va joylashishi chizmasi tayyorlanib, tegishli hududiy ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya hamda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan oldindan

kelishilishi, bozordagi savdo o'rinlarining joylashish chizmasida barcha savdo qilish uchun ajratilgan joylar aniq ko'rsatib o'tilishi, chegarasi belgilanishi va tartib raqam bilan belgilangan bo'lishi lozimligi, bozordagi savdo o'rinlarining joylashish chizmasida ko'rsatilmagan tasdiqlanmagan joylarda savdo-sotiq bilan shug'ullanish (xizmat ko'rsatish)ga yo'l qo'yilmasligi aniq belgilanganmagan. Bu esa o'z navbatida ko'pgina bozorlarda sotuvchilarning tartibsiz holda savdo rastalarini o'rnatishlariga, jinoyatchilik va huquqbuzarlik sodir etilishi uchun qulay muhit yaratish bilan bir qatorda, favqulodda vaziyatlarda tezkor xizmatlarning yetib kelishiga to'siqlar yaratmoqda;

– bozor ma'muriyati tomonidan Milliy gvardiya hamda ichki ishlar organlari xodimlari uchun alohida xizmat xonalari tashkil etilishi, ularga bozor hududidagi barcha kuzatuv kameralari integratsiya qilinishi va tegishli jihozlar bilan jihozlanishi lozimligi to'g'risidagi normalar kiritilmagan. Vaholanki, davlat soliq xizmati organlari, sanitariya-epidemiologiya xizmati, tibbiyot punkti, davlat veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasi yoki davlat veterinariya xizmati organlarining tayanch punktlarini joylashtirish uchun xonalar ajratilishi nazarda tutilgan;

– bozorlarga qo'yilgan talablarga topib olingan (yo'qotilgan) buyumlarni vaqtincha saqlash joyi bo'ligi lozimligi to'g'risida talab kiritilmagan. Bu esa o'z navbatida xaridorlar tomonidan unitib qoldirilgan va yo'qotilgan buyumlarni egasiga qaytarish imkoniyatini minimallashtirib, o'g'rilik hisobiga o'tishiga olib kelmoqda;

Qaror bilan bozor ma'muriyatining, sotuvchilarning majburiyatlarini takomillashtirish, bozor ma'muriyati va sotuvchi o'rtasidagi munosabatlarni kelishuv shartnomasi orqali fuqaroviy-huquqiy tartibga solish ehtiyoji mavjud.

Shunday ekan, "O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari" va "O'zbekiston Respublikasida savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish qoidalari"ga quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim:

a) "bozor", "savdo markazi" va boshqa tushunchalarning huquqiy ta'rifini belgilash hamda shuning asosida yirik bozorlar, savdo majmualari va savdo markazlarining huquqiy maqomini yagona yondashuv, tartib va mezonlar asosida qaror toptirish;

b) bozordagi savdo o'rinlarining soni va joylashishi chizmasi tayyorlanib tegishli hududiy Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya hamda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan oldindan kelishilishi lozimligi, bozordagi savdo o'rinlarining joylashish chizmasida barcha savdo qilish uchun ajratilgan joylar aniq ko'rsatib o'tilishi, chegarasi belgilanishi va tartib raqam bilan belgilangan bo'lishi lozimligi, bozordagi savdo o'rinlarining joylashish chizmasida ko'rsatilmagan tasdiqlanmagan joylarda savdo-sotiq bilan shug'ullanish (xizmat ko'rsatish)ga yo'l qo'yilmasligini aniq belgilash;

d) bozor ma'muriyati tomonidan Milliy gvardiya hamda ichki ishlar organlari xodimlari uchun alohida xizmat xonalari tashkil etilishi, mazkur xizmat xonalariga bozor hududidagi barcha kuzatuv kameralari integratsiya qilinishi va tegishli jihozlar bilan jihozlanishi lozimligi to'g'risidagi normalarni kiritish;

ye) bozorlarga qo'yilgan talablarga topib olingan (yo'qotilgan) buyumlarni vaqtincha saqlash joyi bo'ligi lozimligi to'g'risida talabni kiritish;

f) bozor ma'muriyati va sotuvchilarning majburiyatlarini takomillashtirish, ular o'rtasidagi munosabatlarni kelishuv shartnomasi orqali fuqaroviy-huquqiy tartibga solish amaliyotini yo'lga qo'yishni belgilash.

Ikkinchidan, bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bo'yicha Milliy gvardiya bo'linmalarini jalb etishda yechimini kutayotgan ayrim muammo va tushunmovchiliklar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmonida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. "O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari"ning 7-bandida esa bozor faoliyatini tashkil etish bozor

tashkil etish uchun ajratilgan yer uchastkasini ijaraga oluvchi yuridik shaxs tomonidan ta'minlanishi, bu yuridik shaxs aksiyadorlik jamiyati shaklida yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilib, uning muassislaridan bittasi majburiy tartibda ustav fondidagi ulushi kamida 51 foiz bo'lgan mahalliy davlat hokimiyati organi bo'lishi kerakligi belgilangan. Biroq, mamlakatimizdagi ayrim bozorlar, jumladan "Abu Saxiy" bozori, ya'ni "Tashkent Trade center" ("Toshkent savdo markazi") ustav fondidagi ulushida mahalliy davlat hokimiyati organlarining hissasi ko'rsatilganidek bo'lmasa ham bugungi kunda bunday bozorlar hududida jamoat tartibini saqlash faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalari jalb etilmoqda.

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 11-apreldagi "Madaniyat, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-155-son qarori talablariga muvofiq, *muassislaridan bittasi ustav fondidagi ulushi kamida 51 foiz bo'lgan mahalliy davlat hokimiyati organi bo'lmagan bozorlarni ikki tomonlama tuzilgan shartnoma asosida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalari tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash va qo'riqlovga olishni yo'lga qo'yish lozim.*

Uchinchidan, yirik bozorlarda savdo do'konlari egalari yoki yurish yo'laklarida qo'lbola konstruksiyalar va rastalarda tovar mahsulotlarini yoyib qo'yganligi oqibatida yo'laklar torayib, tashrif buyuruvchilar harakatlanishini qiyinlashtirib qo'ygan, shaxsiy xavfsizlik va yong'in xavfsizligi talablarining buzilishiga, arava tortuvchilar o'rtasida, transport vositalari haydovchilari o'rtasida yo'l talashib nizoli va janjalli holatlarning yuzaga kelishi, tan jarohati yetkazish va bezorilik jinoyatlarining sodir etilishiga olib kelmoqda.

Ayrim bozorlarda, xususan "Chilonzor" buyum savdo kompleksi AJ ma'muriyati tomonidan bu kabi holatlarning oldini olish, bu borada hududga jalb etilgan kuch va vositalar yordamida nazoratni kuchaytirish o'rniga sotuvchilar tomonidan yo'laklarda xavfsizlik talablariga zid holda tashkil etilgan savdo rastalari va konstruksiyalar uchun qo'shimcha "patta puli" to'lovi belgilangan. Oqibatda bu muayyan jinoyatlarning sodir etilishiga ham sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, bozorlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi 649-son qarori bilan tasdiqlangan *"Yong'in xavfsizligi qoidalariga talab darajasida rioya etilmasligi favqulodda vaziyatlarda bozorga tashrif buyurgan xaridorlarni va bozorda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni qisqa vaqtda xavfsiz evakuatsiya qilishga to'sqinlik qiladi.*

Shunday ekan, bozor va savdo majmualarida jamoat xavfsizligi, xususan fuqarolarning xavfsizligi va yong'in xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzishga olib keluvchi yo'llar va yurish yo'laklarida qo'lbola konstruksiyalar va rastalarni tashkil etib, tovar mahsulotlarini sotish holatlariga yo'l qo'ygan savdo do'konlari egalari va boshqa shaxslar, qolaversa shunday holatlarga yo'l qo'yib berayotgan bozor va savdo majmuasi ma'muriyatiga nisbatan ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish choralarini ko'rish lozim.

To'rtinchidan, yirik bozorlarda munitsipal, ya'ni xo'jalik hisobidan xizmat olib boruvchi profilaktika inspektorlari va patrul-post xizmati xodimlari faoliyatini samarali tashkil etishga to'sqinlik qilayotgan muayyan muammolar mavjud.

Jumladan, Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga ko'ra shaharlar markazlaridagi bozorlar Milliy gvardiyaning javobgarlik hududi hisoblansa-da, bozorda faoliyat yuritayotgan munitsipal profilaktika inspektori va patrul-post xizmati xodimlari ichki ishlar organlaridan tayinlangan, shuningdek, *ularning faoliyatini tartibga soluvchi idoraviy meyoriy-huquqiy hujjatlarda munitsipal profilaktika inspektorlari va munitsipal patrul-post xizmati xodimlari faoliyatiga xos xususiyatlar hisobga olinmagan*, ular o'z faoliyatini asosan xizmat ko'rsatuvchi obekt bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq olib boradi hamda bunday shartnomalarda jamoat xavfsizligiga doir qonunchilik hujjatlari talablariga nisbatan muassisning manfaatlari ko'proq aks ettirilgan, shuningdek munitsipal profilaktika inspektorlari va patrul-post xizmati xodimlari xizmat planshetlari bilan ta'minlanmagan.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining javobgarlik hududiga kiruvchi bozorlardagi munitsipal profilaktika inspektori va patrul-post xizmati xodimlari shtat birliklarini Milliy gvardiyaga o'tkazish orqali yahlit tizim yaratish, shuningdek, *"Xo'jalik hisobidan xizmat olib boruvchi (munitsipal) profilaktika inspektorlari va patrul-post xizmati xodimlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini ishlab chiqish hamda ularni xizmat planshetlari bilan ta'minlash lozim.

Beshinchidan, kishilar xushyorlikni yo'qotib pul, narsa, buyum va boshqa mulklarini qarovsiz qoldirganda yoki unutilib qoldirganda boshqa shaxslar uni topib olganligini tegishli organlarga xabar bermasligi (yashirganligi) ko'p hollarda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 62-moddasi (topib olingan mol-mulkni yashirish) bilan emas, balki Jinoyat kodeksining 169-moddasi (o'g'rilik) bilan malakalanib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa holatga noto'g'ri yuridik baho berish bilan bir qatorda, shaxslarning jinoyat qurboni bo'lib qolishlaridan himoyalaniish borasidagi mas'uliyatini his qilmasliklariga olib kelmoqda.

Shunday ekan, shaxslar tomonidan xushyorlikni yo'qotib, qarovsiz qoldirilgan yoki unutilib qoldirilgan mol-mulk (pul, narsa, buyum va boshq.)ni egallab, yashirgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasi (o'g'rilik) bilan emas, balki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 62-moddasi (topib olingan mol-mulkni yashirish) bo'yicha ma'muriy jazo choralari qo'llash bo'yicha ichki ishlar organlari surishtiruv va tergov bo'linmalarida tushintirish ishlarini olib borish lozim.

Oltinchidan, bozorlar va savdo komplekslarida O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari va O'zbekiston Respublikasida savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish qoidalarida savdo o'rnini yoki uning bir qismini yoxud turg'un savdo shoxobchasining ijara huquqlarini uchinchi shaxsga berish taqiqlanishiga doir talablar buzilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalarining 32-bandida savdo o'rnini yoki uning bir qismini uchinchi shaxsga berish taqiqlanishi, O'zbekiston Respublikasida savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish qoidalarining 21-bandida turg'un savdo shoxobchasining ijara huquqlarini uchinchi shaxsga berish taqiqlanishi belgilangan bo'lsa-da, ayrim bozorlarda, xususan "Abu Saxiy" bozori va "Chilonzor" buyum savdo kompleksida ko'pgina savdo do'konlari uchinchi (va undan ko'p) shaxsga ijaraga berilgan. Bu esa bitta savdo do'konidan bir nechta shaxsning foyda olishga urinishi, savdo do'konidan tashqarida, yo'laklarda ham savdo-sotiqni amalga oshirishga urinishi hamda buning oqibatida yo'laklarni to'sib qo'yishga olib kelishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda bozorlar ma'muriyatlari umuman e'tibor qaratmasdan kelayotgan ushbu holatlar o'z navbatida yashirin iqtisodiyot va korrupsiya kabi illatlarga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, "O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari" va "O'zbekiston Respublikasida savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish qoidalari"ning talablarini buzgan holda savdo o'rnini yoki uning bir qismini uchinchi shaxsga berish yoki turg'un savdo shoxobchasining ijara huquqlarini uchinchi shaxsga berish orqali savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish huquqbuzarligini sodir etgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 164-moddasi bilan ma'muriy jazo choralari qo'llanishini ta'minlash, shuningdek ushbu talablarga rioya etilishini ta'minlash va nazorat qilish borasida bozorlar ma'muriyatining mas'uliyatini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Yettinchidan, bozorlarda o'rnatilgan bankomatlar (bank avtomatlari)ning bir qismi eskirgan hamda bu ulardan plastik kartalar orqali pul mablag'larini yechishda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, bozorlardagi bunday bankomatlar ayrim hollarda plastik karta egasiga kartadan yechish so'ralgan naqd pul mablag'ini murojaat qilingan vaqtda taqdim etmasdan, uyali telefonga yuzaga kelgan muammo haqida xabar berib, biroq vaqt o'tgandan

keyin esa ushbu shaxs ketib qolgandan keyin plastik kartadan naqd pulni yechib olish va chiqarib berish holatlari uchramoqda. Yechilgan pul mablag'i esa, bankomatga navbatdagi murojaat qilgan shaxs tomonidan yashirin ravishda egallanishiga olib kelmoqda.

Shu bois, banklar tomonidan bozorlarda, savdo markazlari va boshqa joylarda o'rnatilgan bankomatlar (bank avtomatlari)ni o'z vaqtida ko'rikdan o'tkazib, monitoring qilib borish hamda texnik jihatdan eskirgan va muammoli holatlarni keltirib chiqarayotganlarini zamonaviylari bilan yangilab borish choralari ko'rishni tizimli tashkil etish lozim.

O'ylaymizki, jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi va jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi yuqoridagi omillarni bartaraf etish yuzasidan vakolatli subektlar tomonidan tegishli huquqiy, tashkiliy va amaliy choralarning ko'rilishi, tizimli va manzilli tadbirlarning amalga oshirilishi kelgusida yirik bozorlar va savdo komplekslarida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini, jamoat xavfsizligini barqaror ta'minlashga hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 253-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2012. – № 35, – 403-m.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, – 2021. – № 06/21/27/1116.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-noyabrdagi "Yirik bozorlarda jamoat tartibini saqlash va yong'in xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 791-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, – 2024. – № 09/24/791/0980.
4. *Axmedov B.* Amir Temur. – Toshkent, 1995. – B. 596, 613; *Uljayeva SH.M.* Amir Temur saltanatida milliy davlatchilikning rivojlanishi: Avtoref. dis. ... tarix. fanlar doktori. – Toshkent, 2008. – B. 38.
5. *Muhammad Rizo Ogahiy.* Asarlar. 6-jildlik. J.5. Tarixiy asarlardan parchalar. – T., 1978. – B. 192–193.
6. *Ziyodullayev M.Z.* Bozorlar, istirohat bog'lari va xiyobonlarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini tashkil etish: O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025. – B. 30.
7. *Ziyodullayev M.Z.* Aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash tizimlari: tarixi, buguni va xorij tajribasi: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 10.
8. *Ziyodullayev M.Z.* Amir Temur hukmronligi davrida xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari // O'za ilm-fan bo'limi (elektron jurnal). – Toshkent, 2020. – okt. – B. 77.
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "B" harfi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashr. – B. 457 // [Elektron manba]. – URL: <https://n.ziyouz.com/books/uzbekistonmilliyensiklopediyasi> (mur. vaqti: 08.02.2025).
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – T., 2003. – B. 10.
11. O'zbekiston SSR tarixi. 4 tomlik. – T. 1. Qadimiy davrlardan XIX asrning birinchi yarmigacha. – T., 1970. – B. 653–654.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining 2022–2024-yillardagi Milliy gvardiya bo'linmalarining javobgarlik hududlarida sodir etilgan jinoyatlarning turlari va joylari haqidagi statistik ma'lumotlari tahlili.